

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Jizzax davlat pedagogika
universiteti rektori
prof.Sh.S.Sharipov
29.02.2024 yil

**5110300 – Kimyo bakalavriat ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchilari uchun mutaxassislik fanlardan**

**YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
DASTURI**

Bilim sohasi:	100000-Gumanitar
Ta’lim sohasi:	110000-Pedagogika
Ta’lim yo‘nalishi:	5110300-Kimyo

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida NIZOM” ga asosan ishlab chiqildi.

Mazkur dastur Universitet Kengashining 2024-yil 29-fevraldagi 7-sonli bayonnomasiga asosan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

- M.Sultonov - A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrası mudiri, k.f.d., prof.
- Z.Z.Yaxshieva - A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrası professori, k.f.d.
- M.Inatova - A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti, k.f.n.
- G‘.Sharifov - A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti, k.f.n.
- K.Rashidova - A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti, k.f.n.

Taqrizchilar:

- Sh.Xaqberdiev - Jizzax politexnika instituti kimyo kafedrası mudiri
- G.N.Daminov - A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti, k.f.n.

KIRISH

2023/2024 o'quv yilida bitiruvchilarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustda 418-son buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladi.

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI O'TKAZILADIGAN FANLAR TARKIBI:

- I. Anorganik kimyo (umumkasbiy fanlar)
- II. Organik kimyo (umumkasbiy fanlar)
- III. Kimyo o'qitish metodikasi (umumkasbiy fanlar)

Ushbu dasturda ta'lim yo'nalishi uchun "Anorganik kimyo, organik kimyo, kimyo o'qitish metodikasi" fanlarining mazmuni, fanlar bo'yicha Davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi, baholash mezonlari, savollari va o'quv adabiyotlari hamda elektron ta'lim resurslari ro'yxati keltirilgan.

5110300 – Kimyo ta'lim yo'nalishi bitiruvchi talabalari uchun "Anorganik kimyo" fanidan Yakuniy Davlat Attestatsiyasi DASTURI

ANORGANIK KIMYO fanining mazmuni

Anorganik kimyoning rivojlanish tarixi. Respublikaning tabiiy zaxiralari va ulardan mahsulotlar ishlab chiqarishni bayon etish orqali o'qitishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib berish, maktab, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari kimyo kurslariga bog'liq bo'lgan masalalarni chuqur yoritish orqali kasbga yo'naltirishni amalga oshirishdan iborat.

Anorganik kimyo fanining eksperiment o'tkazish imkoniyati juda yuqori bo'lganligi uchun uni o'rganish davrida kimyoviy idishlar, kimyoviy reaktivlar, gazli va elektr qizdirish vositalari bilan ishlay olish, zamonaviy tarozilarda tortish, turli laboratoriya operatsiyalarini o'tkaza bilish, shisha naylar va idishlar yordamida turli tajribalar o'tkazish, qurilmalarini yasay bilish, o'quv adabiyotlarini tahlil qila olish, kimyoviy formula va tenglamalar bilan hisoblashlar o'tkazish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish talab etiladi.

Anorganik kimyo fanining predmeti, rivojlanish davrlari va metodlari

Kirish. Anorganik kimyo fani va uning vazifalari. Materiya va modda. Kimyoning fizika, matematika, biokimyo va boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Kimyoning shakllanishi va rivojlanish davrlari hamda unga mutafakkirlarining qo'shgan hissalar.

Anorganik birikmalarning eng muhim sinflari

Oddiy moddalar: metallar va metallmaslar. Oksid, asos, kislota va tuzlarni olinishi, fizik-kimyoviy xossalari. Murakkab moddalarning tarkibi bo'yicha sinflari. Binar (ikki elementli) birikmalar.

Vodorod atomining tuzilishi. Vodorodning olinishi, fizik-kimyoviy xossalari.

Vodorodning davriy sistemada joylanishi. Vodorod izotoplari. Vodorodning tabiatda tarqalishi. Vodorod molekulasining tuzilishi. Vodorodning laboratoriya va sanoatda olinishi. Vodorodning kimyoviy va fizikaviy xossalari. Gidridlar va peroksidlar. Vodorodning kimyoviy jihatdan faolligi. Vodorodning sanoatda va laboratoriyada qo'llanilishi.

VII A guruh elementlari

VII guruhning asosiy guruhcha elementlarining umumiy tavsifi. Ftor, uning tabiiy birikmalari. Ftorning olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Ftor metalmaslar bilan hosil qilgan birikmalari.

Xlor. Xlorning tabiatda uchrashi. Tabiiy xlorning izotop tarkibi. Xlorning olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Xlorning vodorodli (HCl), kislrorodli (kislota anhidridlari misolida),

kislorodsiz va kislorodli kislotalarini olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari, hamda ishlatilishi. Kislotalardan olinadigan birikmalari ishlatilishi va biologik ahamiyati.

Brom. Bromning tabiatda uchrashi. Tabiiy bromning izotop tarkibi. Bromning olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Bromning vodorodli (HBr), kislorodli (kislota anhidridlari misolida), kislorodsiz va kislorodli kislotalarini olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari, hamda ishlatilishi. Kislotalardan olinadigan birikmalari ishlatilishi va biologik ahamiyati.

Yod. Yodning tabiatda uchrashi. Tabiiy yodning izotop tarkibi. Yodning olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Yodning vodorodli (HI), kislorodli (kislota anhidridlari misolida), kislorodsiz va kislorodli kislotalarini olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari, hamda ishlatilishi. Kislotalardan olinadigan birikmalari ishlatilishi va biologik ahamiyati.

VI A guruh elementlari (O₂, S, Se, Te, Po misolida)

Elementlar atomlari xossalarining umumiy tavsifi va elektron formulalari. Kislorod va uning olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari, tabiatdagi roli, allotropiyasi ishlatilishi hamda biologik ahamiyati. Ozon va uning xossalari va olinishi, tabiatda hosil bo'lishi.

Oltinugurt va uning tuzilishi, tabiatda tarqalishi. Oltinugurtning metalmaslar (vodorod, kislorod, uglerodlar misolida) bilan hosil qilgan birikmalarini tabiatda tarqalishi, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda ularni ishlatilishi. Oltinugurtning kislorodsiz va kislorodli kislotalarini olinishi, fizik-kimyoviy xossalari, ishlatilishi va ulardan hosil qilingan birikmalarning biologik ahamiyati.

Selen, tellur va polloniy. Ularning olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Selen va tellurning hozirgi zamon texnikasidagi ahamiyati. Selen, tellur va polloniylarning vodorodli va kislorodli birikmalari, ularning kislotalarni olinishi, xossalari, ishlatilishi hamda ularning birikmalarini ishlatilishi.

V A guruh elementlari (N₂ misolida)

V guruh asosiy guruhcha elementlarining umumiy tavsifi. Azotning tabiatda aylanishi. Azotning laboratoriya va sanoatda olinish usullari hamda biologik ahamiyati. Azotning vodorodli birikmalarini (ammiak, gidrozin, azid kislota, gidroksilamin, ammoniy ioni misolida tushuntirish) olinishi va fizikaviy hamda kimyoviy xossalari, ishlatilishi. Azotning kislorodli birikmalarini olinishi va fizik-kimyoviy xossalari. Tarkibida azot saqlovchi kislorodli kislotalar (nitrit va nitrat kislotalar misolida)ni olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari, ishlatilishi. Zar suv va uning xossalari. Nitrit va nitrat kislota tuzlari va ularning termik parchalanish mahsulotlari.

V A guruh elementlari (P, As, Sb, Bi misolida)

Fosforning eng muhim tabiiy birikmalari. Fosforning olinishi, allotropik shakl o'zgarishlari. Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Fosforning vodorodli birikmalari. Fosforning kislorodli birikmalari. Fosforli kislotalar (gipofosfit, meta-, orto-, pirofosfat kislotalar) olinishi va xossalari, ularning ahamiyati. Fosfor galogenidlari. Fosfor va fosforli birikmalarning amalda qo'llanilishi hamda biologik ahamiyati.

Mishyak, surma, vismut va ularning birikmalari hamda ularning ishlatilishi.

IV A guruh elementlari (C misolida)

IV guruh asosiy guruhcha elementlarning umumiy tavsifi. Uglerod va uning tabiatda aylanishi, xossalari, birikmalari, tabiatda uchrashi. Uglerodning allotropik shakl o'zgarishlari. Uglerodning metalmaslar bilan hosil qilgan birikmalari haqida qisqacha tavsif (uglerodning vodorodli va kislorodli birikmalari, metallarning karbidlari).

IV A guruh elementlari (Si, Ge, Sn, Pb misolida)

Kremniy va uning tabiatda uchrashi, olinishi va fizikaviy hamda kimyoviy xossalari. Tabiiy silikatlar. Alyuminosilikatlar: dala shpatlari, slyudalar, asbest. Tabiiy silikatlarning yemirilishi. Kaolin. Kremniyning vodorodli birikmalari. Silikat kislota olinishi va xossalari. O'zbekistonda shisha va keramika sanoati.

Germaniy, qalay, qo'rg'oshin va ularning birikmalari, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda allotropiyalari. Germaniyning hozirgi zamon texnikasidagi ahamiyati. Qalay, qo'rg'oshin (II, IV) birikmalari va ularning xossalari. Qalay, qo'rg'oshin va ularning birikmalarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

VIII A guruh elementlari

Bu elementlarning kashf qilinish tarixi. Nodir gazlar atomlarining elektron tuzilishi, ionlanish potentsiallari. Geliy, neon va argonning qo'llanilishi. Kripton va ksenonning muhim birikmalari, qo'llanilishi.

Metallarning umumiy xossalari va olinish usullari.

Metallarning qotishmalari, ularning tuzilishi, ahamiyati. Metall kristall panjaralarining turlari. Metallarning umumiy fizikaviy va kimyoviy xossalari. Metallarni tabiatda uchrashi. Metallarni olinish usullari.

I A guruh elementlari

Ishqoriy metallarning davriy sistemadagi o'rnini hamda boshqa grupp elementlaridan farqlanishi. Elementlarning yer qobig'ida tarqalishi, ularning eng muhim tabiiy birikmalari. Litiy, natriy metallarining olinishi, fizik-kimyoviy xossalari va ularni ishlatilishi. Litiy va natriy birikmalarini biologik ahamiyati.

Elementlarning yer qobig'ida tarqalishi, ularning eng muhim tabiiy birikmalari. Kaliy, rubidiy, sezii metallarning olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Ularning birikmalari va ularni qo'llanilishi. Kaliy, rubidiy va sezii birikmalarini biologik ahamiyati.

II A guruh elementlari

IIA guruh element atomlari xossalarining tavsifi. Bu elementlarning eng muhim tabiiy birikmalari va olinishi. Berilliy, magniyning tabiatda uchrashi, olinishi, fizikaviy, kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Elementlarning birikmalari, gidridlari, oksidlari, gidroksidlari, peroksidlari va tuzlari. Berilliy va magniyning biologik ahamiyatlari.

Kalsiy, stronsey va bariy metallarini tabiatda uchrashi, olinishi, fizikaviy, kimyoviy xossalari hamda ishlatilishi. Elementlarning birikmalari, gidridlari, oksidlari, gidroksidlari, peroksidlari va tuzlari. Kalsiy, stronsiy va bariyni biologik ahamiyatlari. Suvning qattiqligi va uni yo'qotish usullari.

III A guruh elementlari

Elementlar atomlarining umumiy tavsifi. Bor va uning muhim tabiiy birikmalari, olinishi, allotropik shakl o'zgarishlari, fizikaviy va kimyoviy xossalari, ishlatilishi. Bor elementining metalmas elementlar bilan hosil qiladigan birikmalari. Tarkibida bor saqlovchi kislotalarni olinishi, fizik-kimyoviy xossalari, ishlatilishi.

Alyuminiy uning yer qobig'ida tarqalishi, muhim tabiiy birikmalar, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Alyuminiy va uning qotishmalari, ishlatilishi. Muhim birikmalari: oksid, gidroksid, alyuminatlari va tuzlarning olinishi, xossalari va amaliy ahamiyati.

Galliy, indiy, talliy element atomlarning umumiy tavsifi. Ularning olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari, ishlatilishi. Bu elementlarning Respublikamizdagi zahiralari va ishlab chiqarilishi. Metallar va ular qotishmalarining amalda qo'llanilishi. Oksidlari, gidroksidlari va tuzlarining olinishi, xossalari. IIIA guruh elementlarining biologik ahamiyati.

Davriy sistemaning qo'shimcha guruhchasi elementlari/

d va f elementlar xossalarining umumiy tavsifi. Asosiy va qo'shimcha guruhchalar elementlari, atomlari, oddiy moddalari hamda birikmalari xossalarini taqqoslash.

Mis, kumush, oltin. Ularning tabiatda uchrashi, olinishi, fizik va kimyoviy xossalari, birikmalari. O'zbekistonda mis, oltin, kumush va ular birikmalarini ishlab chiqarish. Mis, kumush, oltin, ularning qotishmalari va birikmalarning amaliy ahamiyati.

II B va III B guruh elementlari

Bu elementlar atomlarning tuzilishi va xossalari. Rux, kadmiy, simob. Ularning tabiatda uchrashi, olinish usullari. Fizikaviy va kimyoviy xossalari, muhim birikmalari: oksidlari, gidroksidlari, tuzlari va kompleks birikmalari. Ularning olinishi va xossalari. Simob (I va II valentli) birikmalari. Rux, kadmiy, simobning Respublikamizdagi zahiralari va ishlab chiqarilishi, ishlatilishi.

Skandiy, ittriy, lantan, aktiniy va ularning ochilishi tarixi. Bu elementlarning tabiatda uchrashi. Oddiy moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oksidlari, gidroksidlari va tuzlari, ahamiyati.

IV B va V B guruh elementlari

Bu elementlar atomlari xossalarini umumiy tavsifi. Titan uning tabiiy birikmalari, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Sirkoniy, gafniy. Ularning tabiiy birikmalari, olinishi, oddiy

moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oksidlari, gidroksidlarining kislota-asos xossalari va tuzlari.

Vanadiy, niobiy, tantal. Tabiiy birikmalari, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Vanadiy, niobiy va tantalning xossalari va birikmalari, qo'llanilishi.

VI B va VII B guruh elementlari

Xrom, uning tabiiy birikmalari, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Xrom (II, III) birikmalari: oksidlari, gidroksidlarining kislota-asos xossalari, tuzlari. Ularning olinishi va kimyoviy xossalari. Xrom (III) ning kompleks birikmalari. Xrom (VI) oksidi va xromat kislotalari, ularning olinishi, xossalari, tuzlari. Xrom qotishmalari va birikmalarining ishlatilishi.

Molibden va volfram. Tabiiy birikmalardan molibden va volfram olinishi. Molibden, volfram va ular qotishmalarining xossalari, O'zbekistonda ishlab chiqarilishi. Molibdat va volframat kislotalar va ularning tuzlari.

Marganes, texnetsiy, reniy elementlari atomlarining elektron tuzilishlari va umumiy xossalari. Marganes, tabiiy birikmalari, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari. Marganes (II, IV) birikmalari, oksidlari, gidroksidlarining kislota-asos xossalari, tuzlari. Marganes (VI, VII) birikmalari. Manganat va permanganat kislotalar va ularning tuzlari. Marganes, uning qotishmalari va birikmalarining ishlatilishi.

Texnetsiy va reniy, ularning olinishi. Reniyning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Reniy (VII)-oksid, perrenat kislota, uning tuzlari. Reniy va uning qotishmalari, ishlatilishi.

VIII guruh elementlari (Fe misolida)

VIII guruh qo'shimcha guruhcha elementlari. Temir oilasi elementlari. Temir, uning yer qobig'ida tarqalishi, muhim tabiiy birikmalari. Temirning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Temir (II-III) birikmalari: oksidlari, gidroksidlari, tuzlari. Ularning olinishi, xossalari. Temir (VI) birikmalari, xossalari. Ferratlar. Temirning kompleks birikmalari. Temir qotishmalari. Cho'yan ishlab chiqarish va cho'yandan po'lat hosil qilishda sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlar. Qora metallurgiya sanoati. Cho'yan ishlab chiqarish va cho'yandan po'lat hosil qilishda sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlar. Qora metallurgiya sanoati.

VIII guruh elementlari

Kobalt, nikel (II, III) birikmalari: oksidlari, gidroksidlari, tuzlarning olinishi va xossalari. Kobalt, nikelning kompleks birikmalari. Kobalt, nikel, ularning qotishmalari va birikmalarining ishlatilishi.

Palladiy va platinaning tabiatda uchrashi. Platina oilasi metallarining fizikaviy va kimyoviy xossalarining o'ziga xosligi. Bu elementlarning muhim birikmalari va kompleks birikmalari, ishlatilishi.

Davriy sistemada yangi kashf qilingan (107-118) elementlarning elektron tuzilishi, ularning kashf qilinishi, olinishi fizik va kimyoviy xossalari hamda ularning birikmalari ishlatilishi, biologik ahamiyatlari.

2023-2024 o'quv yilida "Anorganik kimyo" fanidan o'tkaziladigan Davlat Attestatsiyasi sinovining asosiy savollari

1. Ishqoriy metallarning kimyoviy xossalarini yozing.
2. Azotning oksidlari qayerlarda ishlatiladi?
3. 173 g suvda 27 g mis tuzi eritilganda hosil bo'lgan eritmadagi misning massa ulushi 6,4 % bo'ldi. Misning qaysi tuzi eritilganligini aniqlang?
4. Tuz tarkibida 28% metall, 24% oltingugurt, 48% kisloroddan iborat. Metallni aniqlang?
5. Ishqoriy-yer metallarining kimyoviy xossalarini yozing.
6. 23 g natriy bo'lagi 218 ml suvda to'liq eritildi. Hosil bo'lgan eritmaning molyal (mol/kg) konsentratsiyasini aniqlang.
7. Xlor, tabiatda uchrashi, olinishi, xossalari. Xlorid kislota. Xlorning kislorodli birikmalari yozin?.
8. Uglarodning fizik xossalarini hamda alotropik shakl o'zgarishlari haqida tushuncha bering.

9. Kimyoviy bog'lanishning asosiy tavsifi: bog' uzunligi, energiyasi. Valent burchak. Kimyoviy bog'lanishning asosiy tiplari yozing?
10. 23 g natriy bo'lagi 218 ml suvda to'liq eritildi. Hosil bo'lgan eritmaning molyal (mol/kg) konsentratsiyasini aniqlang.
11. Nitrat kislotaning kimyoviy xossalarini yozing?
12. Tarkibida 0,5 foiz chet moddalar bo'lgan dolomit mineralining kuydirilishi natijasida 5 l gaz mahsulot olingan. Reaksiya uchun olingan dolomid massasini hisoblang
13. Hajmi 1000 m³ suv gazini olish uchun tarkibida 0,95 massa ulush uglerod tutgan ko'mir massasini (kg) toping
14. Fe⁺² ioni uchun sifat reaksiya usullarini yozing?
15. Azot guruhchasidagi elementlarga umumiy ta'rif bering va xossalarini keltring?
16. Massasi 15,8 g bo'lgan kaliy permanganat qizdirilganda, 0,896 l (n.sh) kislorod olindi. Kislorodning chiqish unumini (%) hisoblang.
17. Reaksiyaning har bir bosqichida unum 80 % bo'lgan sharoitda 72 g grafit bilan kaltsiy oksid aralashmasi yuqori temperaturada qizdirilganda olingan mahsulotning suv bilan reaksiyasida hosil bo'lgan gazning hajmini (l) toping.
18. Alyuminiyning fizik va kimyoviy xossalarini yozing?
19. Sulfat kislota qaysi metallar bilan reaksiyaga kirishadi?
20. Reaksiya unumi 50 % ni tashkil etsa, 2 mol mis(II)-nitratning parchalanishi natijasida qancha hajm (l.n.sh.) gaz ajraladi?
21. 10,8 g kaltsinirlangan sodaga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda, n.sh. da 2,24 l gaz ajraldi. Soda tarkibidagi qo'shimchaning massa ulushini (%) aniqlang.
22. Uglerodning allotropiyasi haqida tushuncha bering.
23. Oltinugurtning kislorodli birikmalari haqida yozing.
24. Fosfor va uning birikmalariga ta'rif bering va xossalarini keltring?
25. 5,6 g CO bilan etarli miqdorda FeO reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan gazning hajmini (n.sh.da) hisoblang.
26. 8 g misni ajratib olish uchun qancha (g) mis(II)-sulfat bilan temirni o'zaro ta'sir ettirish kerak?
27. Xlor va xlorning birikmalari haqida tushuncha bering olinish usullarini yozing?
28. Oltinugurtning kislorodli birikmalari haqida tushuncha bering va kimyoviy xossalarini yozing?
29. Tarkibida 94 % sof MgCO₃ bo'lgan 10 kg magnezitni kuydirishdan qancha (kg) karbonat anhidrid olish mumkin?
30. Vodorod peroksid. Vodorod peroksidning olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari?
31. Kislorod va uning allotropik shakl o'zgarishi haqida tushuncha bering?
32. Vodorod xloridning kimyoviy xossalarini yozing?
33. 12 g magniyning to'liq yonishidan qancha (g) magniy oksid hosil bo'ladi?
34. 20 g metafosfat kislota (HPO₃) olish uchun qancha (g) fosfor kerak bo'ladi?
35. Ishqoriy metallar qayerlarda ishlatilishiga misollar bilan izoxlang?
36. Izatopga ta'rif bering va o'zaro izotop bo'lgan moddalarga misollar keltiring?
37. 8g metall oksidini qaytarish uchun 2,24l vodorod sarf bo'lgan oksidning formulasini toping
38. 2 foizli NaOH eritmasini tayyorlash uchun 200g suvga qancha (g)NaH qo'shish kerak?
39. Ishqoriy elementlarning fizik va kimyoviy xossalari haqida tushuncha bering.
40. Azot elementi qanday reaksiyalarga kirishadi misollar keltring?
41. Na va Ca dan iborat 0,3mol aralashma suv bilan ta'sirlashganda 4,48l (n.sh)gaz ajraldi Boshlang'ich aralashmadagi Ca massasini (g) toping .
42. Reaksiya unumi 90 % ga teng bo'lgan sharoitda 49 kg sulfat kislotaning yetarli miqdordagi rux bilan o'zaro ta'siridan qancha (g) vodorod olish mumkin?
43. Azot tabiatda qayerlarda va qanday ko'rinishda uchraydi?
44. 123 g magniyning to'liq yonishidan qancha (g) magniy oksid hosil bo'ladi?
45. Kobalt elementining kimyoviy va fizik xossalari haqida yozing?

46. Davriy sistemada qanday davriy takrorlanadigan qonunlar bor? C guruhchasi misolida tushuntiring
47. Birinchi guruh elementlaridan ionlanish potentsiali eng yuqorisini toping?
48. Tarkibida 48 % oltingugurt bo'lgan 400 t piritdan qancha (t) sulfat kislotasi olish mumkin?
49. Rux, kadmiy, simob tabiatda uchrashi, olinishi, fizik va kimyoviy xossalari. Ularning birikmalari, olinishi va xossalari?
50. Fosfor va uning birikmalari qanday reaksiyalarga kirishadi?
51. Kislorod elementining ahamiyati nimada?
52. 4,44 g malaxit parchalanganda 3,2 q mis (II)-oksidi va 0,36 g suv hosil bo'lsa, necha gramm gaz ajralib chiqadi?
53. Vodorod tabiatda qanday ko'rinishlarda uchraydi va olinish usullari?
54. Kumushning tabiatda tarqalishi va ajratib olinishi haqida tushuncha bering?
55. Kremniy elementining ahamiyati va ishlatilishi sohalari haqida yozing?
56. Massasi 38,6 g bo'lgan kaliy permanganat qizdirilganda, 0,656 l (n.sh.) kislorod olindi. Kislorodning chiqish unumini (%) hisoblang.
57. 179 g sulfat kislotasi qancha oltingugurt (VI)-oksidge to'g'ri keladi?
58. Oltingugurt elementini eng muhim birikmalarining ahamiyati va ishlatilishini yozing.
59. Ftor, tabiiy birikmalari. Ftorning olinishi, xossalari. Vodorod ftoridning olinishi, xossalari. Ftor oksidlari yozing?
60. Fosforning allotropik shakl o'zgarishlari va olinish usullarini yozing?
61. Laboratoriyada 26,88 l (n.sh.) ammiak olish uchun 15 % qo'shimchasi bo'lgan kalsiy gidroksiddan necha gramm zarur bo'ladi?
62. Massa ulushi 88 % bo'lgan 0,1 kg temir sulfiddan normal sharoitda o'lchangan necha litr vodorod sulfid olish mumkin
63. $1s^2, 2s^2, 2p^6, 3s^2, 3p^6, 4s^2, 3d^{10}, 4p^6, 5s^1$ elektron formulaga ega bo'lgan elementni xossalari bilan olinish usullarini keltiring?
64. Allotropiya hodisasi nima? Misollar keltib'rib tushuntiring.
65. Piritdan qanday qilib sulfat kislotasi olish mumkin? Reaksiya tenglamalarini yozing
66. 4molyarli ($\rho = 1,12$) kaliy ishqor eritmasini tayyorlash uchun 500g suvga necha g kaliy qo'shish kerak?
67. 225ml 35% li ($\rho = 1,2$ g/ml) nitrat kislotasi eritmasini neytrallashtirish uchun zarur bo'lgan ammiak hajmini hisoblang
68. Uglarod guruhchasi elementlariga ta'rif bering va kimyoviy xossalari yozing?
69. Elementlar atomining radiusi qanday o'zgaradi Li, Na, K, I, Br, Cl, F izoh keltirib?
70. Qaysi modda kuchli qizdirilsa kislorod hosil bo'ladi va kislorodni olinish usullari?
71. Tabiiy surma ikkita izotopdan tarkib topgan: ^{121}Sb va ^{123}Sb . Ularning molyar ulushlari mos ravishda 62,5% va 37,5% ga teng bo'lsa, surmaning o'rtacha nisbiy atom massasini aniqlang
72. Laboratoriyada 67,2l (n.sh.) ammiak olish uchun 15% qo'shimchasi bo'lgan kalsiy gidroksid namunasidan necha g. zarur?
73. Qaysi oksid azot yuqori valentlik namoyon qiladi va qaysi metall azot bilan oddiy sharoitda reaksiyaga kirishadi?
74. Kislorod oddiy modda ko'rinishida qaysi holatlarda uchraydi? Ta'rif bering
75. Mo'l miqdordagi kumushga 27% li 200 ml ($\rho = 1,24$ g/ml) nitrat kislotasi ta'sir ettirilganda hosil bo'lgan eritmaga mo'l miqdorda kaliy ishqor eritmasi qo'shilganda necha gramm cho'kma tushadi?
76. Laboratoriyada kislorod qaysi usulda olinadi va kimyoviy xossalari?
77. Kremniy atomining tashqi energetik qobig'ini elektron formulasi qanday va kremniy (IV) oksidining kimyoviy xossalari yozing?
78. 32,5 g ruxni xlorid kislotasi bilan ta'sirlashtirilganda necha mol vodorod ajralib chiqadi
79. 20g mis (II) oksidini 21g sulfat kislotasi bilan qizdirilganda hosil bo'lgan tuz massasi nimaga teng?
80. Amfoter gidroksidlarni ko'rsating va amfoter so'ziga ta'rif bering?

81. Alyuminiyni kislorodda yonish reaksiyasi tenglamasida qaytaruvchi oldidagi koeffitsiyent nimaga teng?
82. 160 g eritmani parlatilganda 40 g tuz qoldi. Eritmadagi erigan tuz massa ulushini toping
83. 3t FeS₂(Mr=120) kuydirilganda 95% unum bilan olingan oltingugurt (IV) oksidini hajmini toping?
84. Nitrat kislotani sanoatda qanday ishlab chiqariladi?
85. Quyidagi reaksiya tenglamasidagi $P + KClO_3 \rightarrow KCl + P_2O_5$ oksidlovchi va qaytaruvchi formulalari oldidagi koefitsientlarni aniqlang?
86. Ohak toshni 2,0g kuydirilayotganda 336ml (n.sh) karbonat angdirid hosil bo'ldi. Ohaktoshdagi aralashmalarni massa ulishi % nimaga teng
87. Osh tuzining 20% eritmasidan 800 gr tayyorlash uchun uning 5%li va 30%li eritmalaridan qanchadan olish kerak.
88. Atom radiusi eng kichik element qaysi? Unga ta'rif bering
89. Azot birikmalarida qanday oksidlanish darajalarini va qanday valentliklarni namoyon etadi?
90. Ozonning kimyoviy xossalarini yozing?
91. Chiqish unumi 92,5% bo'lgan 140t sulfat kislota ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan oltingugurt massasini aniqlang?
92. 6,8 g ammiakdan ammoniy sulfat olish uchun 60% li sulfat kislota eritmasidan qancha miqdorda olish kerak?
93. Osh tuzi eritmasi qanday muhitga ega va osh tuzining fizik va kimyoviy xossalarini ayting?
94. 50 ml eritmaning tarkibida 6,85 g alyuminiy sulfati mavjud. Tuzning molyar konsentratsiyasi necha mol/l ga teng?
95. Katalizator ishtirokida 8,96 l (n.sh.) ammiak kislorodda oksidlandi. Kislorod manbai-bertolle tuzi. Reaksiya uchun bu tuzning qanday massasini (g) olish kerakligini aniqlang
96. Suvning qattiqligi nima?
97. Kaliy elementining fizik va kimyoviy xossalariga ta'rif bering?
98. 300 ml 0,2 M eritmada necha gramm kaliy xloridi mavjud?
99. 200 gr 10% natriy sulfat eritmasiga necha gramm glauber tuzi qo'shilsa 20 % li eritma hosil bo'ladi
100. Ammiakning qanday olinish usullarini yozing?
101. Femir havoda yonganda qanday birikma hosil bo'ladi?
102. Vodorod xloridning fizik va kimyoviy xossalarini yozing?
103. Xajmi 20 l n.sh. da bo'lgan ammiakni massasi 400 g bo'lgan suvda eritildi. Eritmadagi ammiakning massa ulushini aniqlang.
104. Massasi 12,6 t bo'lgan nitrat kislota olish uchun sanoatda isrofgarchilik 5 % ni tashkil etishini hisobga olgan holda sarf bo'ladigan ammiak massasini aniqlang.
105. Litiy elementi qanday kimyoviy reaksiyalarga kirishadi?
106. Uglerodning allotropik shakl o'zgarishlari qanday ko'rinishlarda bo'ladi? Ularga ta'rif bering.
107. Metallarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni yozing?
108. Xajmi 20 l n.sh. da bo'lgan ammiakni massasi 400 g bo'lgan suvda eritildi. Eritmadagi ammiakning massa ulushini aniqlang.
109. Temir karbida uglerodning massa ulushi 6,57 % ni tashkil qiladi. Temir karbidning formulasi aniqlang.
110. Yer qobig'ida uchrashi bo'yicha O₂ dan keyingi o'rinda turadigan element qaysi. Unga ta'rif bering?
111. Karborund qattiqligi bo'yicha qaysi moddadan keyingi o'rinda turadi?
112. Fosforning qanday birikmalari qishloq xo'jaligida keng miqyosda ishlatiladi?
113. Teng xajmdagi vodorod va geliydan iborat gaz aralashmasining vodorodga nisbatan zichligini aniqlang.
114. Kaltsiy karbonatning massa ulushi 90 % bo'lgan 1,5 t massali oxaktosh pechda kuydirildi. Qattiq qoldiqqa mol miqdorda suv qo'shildi. Olingan kaltsiy gidroksidni aniqlang?

115. Azotning necha xil oksidi bor. Ularga ta'rif bering?
116. Kalsiy metalining kimyoviy xususiyatlarini yozing?
117. Oltingugurtning qaysi birikmalari qishloq xo'jaligi ekinlari uchun zararli, hamda ular qanday ko'rinishlarda uchraydi?
118. Magniy – alyuminiydan iborat 1 gramm qotishmadan mol miqdor kislotaga eritildi. 1,15 l vodorod ajralib chiqdi. Qotishmadagi magniyning foiz tarkibini aniqlang.
119. Na va K iborat qotishmaning 8,5 g suvga tushirilganda n.sh. da 3,36 l vodorod ajralib chiqqanligi aniqlandi. Qotishmadagi natriyning massasini toping.
120. Ozon qayerlarda uchraydi, hamda uning ahamiyati haqida to'liq ma'lumot bering?
121. Oltingugurt qanday birikmalar hosil qiladi? Ular orasida eng ahamiyatlilari qaysilar?
122. Uglerod va oltingugurdan iborat aralashma yondirilgan 30 g karbonat va sulfat angidrid hosil bo'ldi. Aralashmadagi uglerodning foiz tarkibini aniqlang.
123. Mg va Li qotishmasining 11.4grammi yetarli sharoitda N_2 bilan reaksiyaga kirishganda 12.9 gr mahsulot olindi. Daslabki aralashmadagi Mg ning massasi ulushi qancha bo'lgan? Mg_3N_2 va Li_3N ning hosil bo'lish unumi tegishli 70% va 80% ga teng.
124. Galogenlarga qaysi elementlar kiradi, ularning har biriga ta'rif bering?
125. Suvning qattiqligini qanday yo'qotish mumkin reaksiya tenglamalarini yozing?
126. 100 g CaX_2 moddasida kaltsiyning massasi 20 g. X qaysi element?
127. Rux metalini qanday kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi?
128. Sanoatda azot qanday usullar bilan va qayerda azot ishlab chiqariladigan korxonalar bor?
129. Ishqoriy metallardan birining kimyoviy va fizik xossalarini yozing.
130. Sanoatda suvdan qanday maqsadlarda (nima ishlab chiqarishda) foydalaniladi?
131. Kislorodning qanday olinish usullari bor?
132. Si elementi tabiatda qanday ko'rinishlarda uchraydi?
133. NaCl va $CaCO_3$ iborat 50g aralashma 270g suvda eritildi va 10% eritma olingan bo'lsa aralashma tarkibini toping
134. Fosforning qanday allotropik shakl o'zgarishlari bor. Ularga ta'rif bering?
135. Alyuminiy suyultirilgan va konsentrlangan nitrat kislotasi bilan reaksiyasiga kirishganda nima hosil bo'ladi?
136. 33,6 l (n.sh.) kislorod hosil qilish uchun tarkibida 10% qo'shimchalari bo'lgan Bertole tuzidan necha gramm kerak?
137. 16 g oltingugurtga 200 g 98%li sulfat kislotaga ta'sir ettirilganda kancha hajm (n.sh.d, qaysi gaz hosil bo'ladi?
138. Kislorod va ozonning bir-biridan farqli va o'xshashlik tomonini yozing?
139. 16 g oltingugurtga 200 g 98%li sulfat kislotaga ta'sir ettirilganda kancha hajm (n.sh.d, qaysi gaz hosil bo'ladi?
140. 17.75g P_2O_5 ning oddiy sharoitda suvda erishidan hosil bo'lgan kislotani massasini toping.
141. Fosfor elementi necha xil oksid hosil qiladi? Ularga ta'rif bering.
142. Kremniyning qanday vodorodli birikmalari bor?
143. H_3PO_4 ohista qizdirilsa massasi necha % ga kamayadi reaksiya tenglamalarini yozing?
144. Vodorod va kisloroddan iborat 125g aralashma portlatilgandan so'ng qaysi gazdan necha gramm ortib qoladi? Boshlang'ich aralashmada kislorodning hajmiy ulushi 20%.
145. Uglerodning fizik va kimyoviy xossalarini ayting.
146. Ohakli suvni qaysi elementlar hosil qiladi?
147. Vodorod sulfid qanday kimyoviy reaksiyalarga kirishadi?
148. Vodorod va kisloroddan iborat 125g aralashma portlatilgandan so'ng qaysi gazdan necha gramm ortib qoladi? Boshlang'ich aralashmada kislorodning hajmiy ulushi 20%.
149. 1,25 mol N_2O_4 va 4 mol N_2O_5 dagi kislorod atomlarining nisbatini toping?
150. Kaliy elementining fizik va kimyoviy xossalarini yozing?
151. Sulfat kislotaga sanoatda qanday usullar bilan olinadi?
152. S, C, P, H, Si elektronlarni biriktrish qobiliyati kamayib borish tartibida joylashtiring?

153. Analizlar natijasiga ko'ra birikma Mg, S va O lardan iborat. Barcha magniy atomlari 14,8 g $Mg(NO_3)_2$ ga va barcha oltingugurt atomlari 23,3 g $BaSO_4$ ga o'tkazilgan. Buning uchun 11,2 g birikma ishlatilgan bo'lsa, birikmaning empirik formulasini toping.
154. Elektron konfiguratsiyasi... $4s^0 3d^3$ bulgan $\ominus +3$ kaysi elementga unig olinish usullari?
155. Murakkab moddalar ichida (Oksid, kislota, asos, tuz) eng ko'p tarqalgan va xalq xo'jaligida eng ko'p ishlatiladigan moddalar qaysi?
156. Metallar vodorod bilan qanday birikmalar hosil qiladi? Misollar keltiring.
157. Karbonat kislotaning fizik va kimyoviy xossalarini ayting.
158. 20% li o'yuvchi natriy eritmasini hosil qilish uchun 507 ml suvda necha gramm natriy oksid eritish kerak?
159. Sanoatda nitrat kislota qanday ishlab chiqariladi?
160. Kalsiy elementi tabiatda qanday ko'rinishlarda uchraydi?
161. Suvning qattiqligi va uni yo'qotish usullari nimalardan iborat?
162. Ikki valentli metall gidridi 134,1 g suvda eritilganda 896 ml (n.sh.) gaz modda ajralib, 2,5% li eritma hosil bo'ldi. Bu qaysi metall gidridi?
163. Suvsiz sirka kislota tayyorlash uchun 91% li 400 g sirka kislota eritmasida qancha miqdorda (g) sirka angidrid eritilishi kerak?
164. Murakkab moddalar ichida (Oksid, kislota, asos, tuz) eng ko'p tarqalgan va xalq xo'jaligida eng ko'p ishlatiladigan moddalar qaysi?
165. Sanoatda ammiak qanday ishlab chiqariladi?
166. Kalsiy xloridning 320 g 40% li to'yingan eritmasi sovutilganda 87,6 g kristallogidrat ($CaCl_2 \cdot 6H_2O$) cho'kmaga tushgan bo'lsa, eritmada qolgan tuzning massa ulushini(%) hisoblang.
167. Eng yengil va eng og'ir bo'lgan gazlar haqida tushuncha bering va xossalarini yozing?
168. Sulfat kislota sanoatda qanday usulda ishlab chiqariladi?
169. Qanday metallar suv bilan oddiy sharoitda reaksiyaga kirishadi izoh bering.
170. 56,6 l (n.sh.) kislorod hosil qilish uchun tarkibida 15% qo'shimchalari bo'lgan Bertole tuzidan necha gramm kerak?
171. Vodorod va kisloroddan iborat 125g aralashma portlatilgandan so'ng qaysi gazdan necha gramm ortib qoladi? Boshlang'ich aralashmada kislorodning hajmiy ulushi 20%.
172. Eng yengil va eng og'ir bo'lgan metal qaysi ularning xossalari keltring?
173. Sanoatda ammiak qaysi usulda va qanday xomashyolardan iahlab chiqariladi?
174. Karbonat angidrid gazi tabiatda qanday ta'sir ko'rsatadi?
175. 100 gr oltingugurtga 200 g 98%li sulfat kislota ta'sir ettirilganda kancha hajm (n.sh.d, qaysi gaz hosil bo'ladi?
176. 57.75g P_2O_5 ning oddiy sharoitda suvda erishidan hosil bo'lgan kislotani massasini toping.
177. Eng oson suyuqlanadigan va qiyin suqlanadigan metal qaysi?
178. Karbonat kislotaning fizik va kimyoviyxossalarini yozing.
179. Sanoatda nitrat kislota ishlab chiqarishda nimalar oraliq modda hisoblanadi va ular haqida ma'lumot bering.
180. Ishqoriy metallarning kimyoviy xossalarini yozing.
181. 173 g suvda 27 g mis tuzi eritilganda hosil bo'lgan eritmadagi misning massa ulushi 6,4 % bo'ldi. Misning qaysi tuzi eritilganligini aniqlang?
182. Tuz tarkibida 28% metall, 24% oltingugurt, 48% kisloroddan iborat. Metallni aniqlang?
183. Kadmiy metali qanday reaksiyalarga kirishadi?
184. Ishqoriy-yer metallarining kimyoviy xossalarini yozing?
185. 23 g natriy bo'lagi 218 ml suvda to'liq eritildi. Hosil bo'lgan eritmaning molyal (mol/kg) konsentratsiyasini aniqlang?
186. 173 g suvda 27 g mis tuzi eritilganda hosil bo'lgan eritmadagi misning massa ulushi 6,4 % bo'ldi. Misning qaysi tuzi eritilganligini aniqlang?
187. Uglerodning fizik xossalarini hamda alotropik shakl o'zgarishlari haqida tushuncha bering?
- 188.

189. Nitrat kislotaning xossalari yozing va ishlatilish usullarini kelting?
190. Alyuminiyning olinish usullarini yozing?
191. Hajmi 1000 m³ suv gazini olish uchun tarkibida 0,95 massa ulush uglerod tutgan ko'mir massasini (kg) toping
192. Massasi 15,8 g bo'lgan kaliy permanganat qizdirilganda, 0,896 l (n.sh) kislorod olindi. Kislorodning chiqish unumini (%) hisoblang.
193. Reaksiyaning har bir bosqichida unum 80 % bo'lgan sharoitda 72 g grafit bilan kaltsiy oksid aralashmasi yuqori temperaturada qizdirilganda olingan mahsulotning suv bilan reaksiyasida hosil bo'lgan gazning hajmini (l) toping.
194. Alyuminiyning fizik va kimyoviy xossalari yozing?
195. Sulfat kislota qaysi metallar bilan reaksiyaga kirishadi?
196. Reaksiya unumi 50 % ni tashkil etsa, 2 mol mis(II)-nitratning parchalanishi natijasida qancha hajm (l.n.sh.) gaz ajraladi?
197. 10,8 g kaltsinirlangan sodaga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda, n.sh. da 2,24 l gaz ajraldi. Soda tarkibidagi qo'shimchani massa ulushini (%) aniqlang.
198. Oltinugurtning kislorodli birikmalari va xossalari haqida yozing ?
199. 5,6 g CO bilan etarli miqdorda FeO reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan gazning hajmini (n.sh.da) hisoblang.
200. Rux, kadmium, simob tabiatda uchrashi, olinishi, fizik va kimyoviy xossalari. Ularning birikmalari, olinishi va xossalari yozing?

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

No	Muallif	Adabiyot nomi	Adabiyot turi	Nashr yili	Adabiyotning ARM dagi shifri	Adabiyotning ARM dagi inventar raqami	ARMdagi soni
